



## TIBBIY MADANIYAT JAMOAT SALOMATLIGINING MUHIM BO`G`INI SIFATIDA

**Sadikova Umida Muxtarovna**

Ijtimoiy gigiyena va SSB kafedrasi katta o`qituvchi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7769626>

### ARTICLE INFO

Received: 16<sup>th</sup> March 2023

Accepted: 24<sup>th</sup> March 2023

Online: 25<sup>th</sup> March 2023

### KEY WORDS

*Tibbiy madaniyat, tibbiyot ilm-fan rivojlanishi, kelajakning mustahkam poydevori, axborot texnologiyalari.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada tibbiy madaniyat jamiyat kelajagining mustahkam poydevorini yuksaltirish, tibbiyot ilm-faniga ham moddiy, ham ma'naviy e'tiborni kuchaytirish masalalari yoritilgan.*

### KIRISH

Bugungi kunda insonlar salomatligini saqlash borasida faol, foydali ishlarni amalga oshirish, xalqimizning tibbiy madaniyatini yuksaltirish eng muhim dolzarb masaladir. Tibbiyot ilm-faniga ham moddiy, ham ma'naviy e'tiborni kuchaytirish, fundamental va ilmiy- innovatsion tadqiqotlar natijalarini hayotga joriy etish orqali jamiyatda tibbiy madaniyatning yuksalishiga erishiladi. Natijada bu zamonaviy milliy tibbiyot ravnaqining ta'minlanishiga ijobiy ta'sir etadi. Ma'lumki, tibbiy madaniyat jamiyat kelajagining mustahkam poydevoridir. Bu borada avvalo, yoshlarning tibbiy madaniyatga ega bo'lish zaruriyatini anglashi va unga qat'iyat, o'ziga ishonch va mas'uliyat bilan yondashib, tibbiy bilimlarni o'zlashtirishga jiddiy e'tibor berishi, tibbiy faoliyatning nazariyasi va amaliyoti bilan chuqurroq tanishishi, bilimlarni hayot va amaliyot bilan bog'lay olishi zarur.

### ASOSIY QISM

Tibbiy madaniyatga ega bo'lish uchun shaxsiy refleksiv qobiliyat ta'sirini kuchaytirish, yangicha harakat qilish va yangicha fikrlash, ijodiy yondashish asosida taraqqiy etuvchi shaxs bo'lishga erishish muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda tibbiy madaniyatni oshirish, ayniqsa, tibbiyotda ilm-fanni rivojlantirish, ilmiy izlanishlarning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va o'rganishga jiddiy e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida har yili ilm-fanning bir nechta ustuvor yo'nalishini rivojlantirish zarurligini ta'kidladi. Ma'lumki, "Jamiyat - islohotlar tashabbuskori" degan yangi g'oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Islohotlarning amaliy natijadorligini oshirishda aholining tibbiy madaniyatini oshirishda ularning yanada faol va yuksak dunyoqarashga ega bo'lishiga erishish lozim. Eng asosiysi, bu islohotlar natijasida xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratishda dolzarb ishlarni amalga oshirish talab etiladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat



Mirziyoevning fikri muhim ahamiyatga ega. "Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo'l turibdi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o'qib-o'rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o'zimizni ayamasdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o'zgaradi".

Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir" Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak [1]. Bugungi kunda tibbiyotda ilm- fanni rivojlantirish, ilmiy izlanishlarning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va o'rganishga jiddiy e'tiborni qaratish orqali tibbiy madaniyatni oshirish, tibbiyot va ilm fan sohalarida dolzarb masalalarni tahlil etish muhim hisoblanadi. Ilg'or xorijiy standartlar asosida tibbiyot tizimini tashkil etish, aholining sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishini yanada kengaytirishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Shu bilan birga tez tibbiy yordam xizmati chaqiriqlarini atomatik qabul qilish va ijro etish bo'yicha raqamlashtirish hamda tibbiyot muassasalarini ta'mirlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash eng foydali faoliyatlardandir. "Tibbiyot sohasida taraqqiyotga erishish, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash bilan bog'liqdir. Bu borada ijtimoiy foydali faoliyatlarni amalga oshirish shu soha yukalishining imkoniyatini beradi. Ayniqsa, jadal islohotlar, ilm ma'rifat va innovatsion faoliyat jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadi" [2].

Ma'lumki, o'zbek xalqining tibbiy va ma'naviy madaniyatini shakllanishiga olib kelgan ijtimoiy-axloqiy vositalardan biri qadimdan mavjud bo'lgan hududdagi turli xil diniy va madaniy harakatlar o'chog'idir. Ular insonda barkamollik, haqgo'ylik, adolatni ulug'lagan. Insonning fikr sofligi, so'z sobitligini talab etgan holda uning ma'naviy kamoloti me'yorlarini ishlab chiqqan islom dini o'zining katta ta'sirini ko'rsatdi. O'zbekistonda moddiy va ma'naviy madaniyatning o'ziga xos rivojlanish xususiyati mavjud. Unda inson ruhiyati, uning ma'naviy olamini bilishga, odamlarning o'zaro munosabatlarini anglashga e'tibor berilgan. Sharq tafakkurida insonning ijtimoiy ahvolini nisbatan uning ma'naviy kamolotiga kengrok e'tibor qaratilgan. G'arb falsafasi esa asosiy maqsadini tashqi dunyo tabiatini bilishga, insonlarning tabiatdagi o'rnini aniqlashga va ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga asosiy diqqatini qaratdi. Eng muhimi ta'limni vosita deb bilib, ilm-fanning barcha qirralaridan keng foydalanib, moddiy to'kin-sochin jamiyat qurishga intildi. Har ikki jixatning integratsiyalashuvi jarayoni barcha xalqlar o'rtasidagi qadimiy do'stlik va madaniy aloqalarini yangi sharoitda mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Tibbiy madaniyat — salomatlik garovi deyiladi. Xalqimiz salomatligini asrash, yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı sa'y-harakatlar natijasida yurtimizda epidemiologik vaziyat barqarorligi ta'minlanmoqda. Bugungi kunda shaxsiy gigienaga amal qilish, niqob taqish, yo'talganda og'iz va burun qismlarini ro'molcha bilan berkitish, - ovqatlanishdan oldin qo'llarni sovunlab yuvish, ko'proq vitamanga boy ichimliklar va taomlarni iste'mol qilish tavsiya etilmoqda. Aholining shaxsiy gigiena qoidalari va profilaktika borasida xabardorligini oshirish alohida ahamiyatga ega. Ommaviy axborot vositalari va ko'rgazmali targ'ibot materiallari orqali doimiy ravishda kasallanishning salbiy oqibatları, uning murakkablashish hollari va immunitet mustahkamligining afzalligiga oid tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Shunga alohida e'tibor berish zarurki, o'z salomatligiga e'tiborli, jismonan faol, belgilangan



muddatlarda tibbiy ko'rikdan o'tib, uning xulosalariga to'la amal qilgan inson xastalikka yo'liqmaydi. Zotan, ana shunday yuksak tibbiy madaniyat va sog'lom turmush tarziga rioya etish orqali nafaqat o'zimizning, balki kelajak avlodlarimizning ham salomatligini himoyalashga erishamiz. Yoshlarning tibbiy madaniyatni oshirishda quyidagi jihatlarga e'tibor berish zarur hisoblanadi.

## **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa shuki, tinimsiz o'qib-o'rganish, har qanday faoliyatni innovatsion ijtimoiy foydali faoliyatga aylantirish orqali yangi marralarni egallab, cheksiz muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Buning uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, yuksak tibbiy madaniyatga ega bo'lish barchaning uzluksiz hayotiy ehtiyojiga aylanishi kerak. Tibbiyot sohasida taraqqiyotga erishish, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash bilan bog'liqdir. Ayniqsa, jadal islohotlar, ilm ma'rifat va innovatsion faoliyatning samarali amalga oshirilishi tibbiyot taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadi. Yuksak axloq sohibi va tibbiy jihatdan madaniyatli bo'lishga faqat ma'rifat yordamida erishish mumkin.

## **References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 30.12.2020.
2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINI YaNADA RIVOJLANTIRISH BO'YICH A HARAKATLAR STRATEGIYASI TO'G'RISIDA Toshkent sh., 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)